

O'SMIRLARNI ERKIN RAVISHDA KASB-HUNAR TANLASHIDAGI TO'SIQLAR.

Askarov Azamat Afzalovich
Osiyo Xalqaro universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yoshlarni o'zlari qiziqqan sohani egallashga bo'lgan to'siqlar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.*

Kalit so'zlar: *Kasb-hunar tanlash, yoshlar bilan ishlash, o'smir, psixologiya, xavotirlanish, kelajak avlod, to'g'ri kasb tanlash.*

Respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va madaniy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim jarayoni, kadrlar tayyorlash tizimini ham tubdan yangilash hamda rivojlantirishni talab etadi. Shu boisdan ta'lim tizimini zamon talablari darajasida va erishilgan tajribalar asosida rivojlantirish orqali o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan, har tomonlama yetuk va yuksak ma'naviyatli, komil insonlar etib tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masala hisoblanadi, – deb ta'kidlagan Sh.M.Mirziyoyev.

Bu gaplardan ko'rinadiki, katta hayotga qadam qo'yib kelayotgan yosh, navqiron kelajak avlodning, o'ziga yoqqan hamda shu kasbda o'zini baxtli his etadigan kasb tanlashi va shu kasbni mohirona olib borishiga e'tibor qaratilishi hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. O'smir yoshlar mustaqil hayotga qadam qo'yar ekanlar, o'zlarining hayot yo'llarini belgilab olishga, bundan keying jamiyatdagi mehnat faoliyatlarining aniq istiqbollarini aniqlab olishga, hayotda o'z o'rinlariga ega bo'lishga, o'zlarining kelgusi ixtisoslarini tanlashga intiladilar. Shuning uchun ham endi jamiyatga qo'shilib kelayotgan shaxsning kasb-hunarga oid qiziqishlar tarkib topadi va yanada barqarorroq bo'lib qoladi. Tanlaydigan kasblari ortidan kelajakda oilasini boqishi va shu kasb orqali jamiyatda o'z o'rinlarini topishi haqidagi o'y-xayollar yigit va qizlar o'z kelajaklari haqida jiddiyroq o'ylay boshlayga unday boshlaydi. Katta sinf (asosan 9-10-11- sinflar) o'quvchilarida biror fanga ishtiyoq natijasida ularga shu fanga taaluqli kasblarga qiziqish vujudga keladi. O'smirlarni kasb-hunarga yo'naltirishdan asosiy maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda o'zlari sevgan kasb-hunar tanlashga tayyorlashdan iborat bo'lib, bu jarayon shaxsning kelajakdagi tanlamoqchi bo'lgan kasbiy faoliyat sub'ekti sifatida shakllantirishini nazarda tutadi hamda uning hozirgi kundagi bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashishiga hamda o'z o'rnini topib borishiga zamin yaratadi. Yoshlarni kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirilishiga, yoshlarning kasb-hunarni erkin va mustaqil tanlashining ilmiy-amaliy tizimi sifatida qaralishi lozim. Bunda har bir shaxsning individual xususiyatlarini

hisobga olish hamda xalq xo'jaligida qanday kasb-hunarlariga ehtiyoj sezilayotganini aniqlab olish joizdir.

Mamlakatimizdagi so'nggi o'zgarishlarni kuzatadigan bo'lsak, hukumatning yoshlarga bo'lgan ishonchini ko'rishimiz mumkin. Yoshlarga yaratib berilayotgan sharoitlar buni misoli bo'la oladi. Hozirgi kunga kelib dunyo standartlariga javob bera oladigan kadrlarni yetishtirib chiqarish hukumat oldidag muammolar kesimida turibdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi kunga kelib yoshlarni o'zlari xohlagan kasbga yo'naltirish hamda ularni jamiyatga kerakli kadr qilib tarbiyalashdek yuksak vazifa o'qituvchi-professolarimiz oldidagi vazifa bo'lib turibdi. To'g'ri kasb tanlash ham bu san'atdir. Yosh avlodni o'zlari xohlagan, jamiyatga kerakli bo'lgan kasbni egallashga yo'naltirish kelajak avlod uchun katta yordam bo'ladi desak mubolag'a bo'lmas. Kadrlar tayyorlash davlar dasturi ham bu yo'lda mayoq bo'lib xizmat qiladi. Yaxshi kasb-hunar tanlash, shu kasb-hunarning mohir ustasi bo'lib yetishish ham murakkab jarayon bo'lib hisoblanadi. Kasb tanlashdagi xatolar esa o'smirning keyingi hayotini belgilab berishi mumkin. Butun umr sevmagan mashg'ulot bilan shug'ullanish albatta bu azob. Bu azobni his qilmaslik uchun avvalo kasb tanlashda xushyor bo'lish talab etiladi. Mamlakatimizdagi yosh o'smirlarini kasbga yo'naltirish oid islohotlar zamirida ham shu yotadi. Hozirgi kunga mos kadr bo'lib shakllanish albatta har bir yoshning o'z qo'lidadir. Yoshlar bilan ishlashda ularning istaklarini hisobga olish o'smirlarni kasb tanlash jarayonini negizidir. XXI asr texnologiyalar asri hisoblaniladi. Shu o'rinda vatanimizda so'ngi 5 yil Ichida IT mutaxassislariga sezilarli darajada talab oshganini ko'rishimiz mumkindir.

Yevropada kasb tanlash. Endi esa hammaga ma'lum va mashxur Yevropa haqida. Yevropada yoshlarni kasb tanlashga qiziqishi va ularni qanday qilib qiziqtirish haqida qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak. Finladiya misolida oladigan bo'lsak, maktab davridan bolalarning qaysi fanga qiziqishini aniqlashtirib olishadi, bu qanday bo'ladi? Boshlang'ich ta'limdanoq yoshlarning qaysi fanlarga yoyinki qaysi sohaga qiziqishi aniqlashtiriladi. Bunda bolalarga hech qanday bosimsiz ularning xohishlariga quloq solishadi va shu orqali qiziqishlarini aniqlab olishadi. Keyingi bosqich esa katta sinf. Katta sinflarda bosqichma-bosqich bolalar o'zlari xohlaydigan fanlarni o'qish huquqiga ega bo'lishadi. Ya'ni ularda tanlov paydo bo'ladi. Bitiruvchi sinfga borishganida esa faqatgina o'zlari egallashni xohlagan kasbga oid fanlari bilan mashg'ul bo'lishadi. Keyinchalik shu tanlagan kasblarini mukammal tarzda o'rganib, boshqacha qilib aytganda shu o'xi sevib, qiziqib tanlagan kasbini yetuk mutaxasisi bo'lib yetishib chiqadi. Sababi esa bu tizim. Ya'ni fin ta'limidagi yoshligidan bolaga tanlash imkoniyatini berish. Agar inson o'zi sevgan ishi bilan shug'ullanar ekan u mehnat qilmaydi degan edi ayfon ixtirochisi Stiv Jobs. Xo'sh nimaga bu gap aytilgan deb o'ylaysiz? Gap shundaki olimlarning aniqlashlari bo'yicha agar inson qachonki o'zi sevgan kasb bilan shug'ullanar ekan unda charchoq hissining o'ta past darajada bo'lishini aniqlashdi. Qaytanga qilayotgan ishining rivojlanishi uchun insonga

kreativlik ya'ni fantaziyalari uyg'onaverar ekan. Demak bundan kelib chiqadiki, inson doim sevgan ishi bilan shug'ullansa uni ishida rivoj baraka bo'lar ekan. Mashxur sobiq sovet davlati xalq artisti Yuriy Nikulindan siz baxtli inson deb qanaqa insonni ayta olasiz deb so'rashganida u quyidagicha javob beribdi:

“Baxtli inson har ertalab turib ishiga oshiqib borsa va kech bo'lishi bilan uyiga oshiqib qaytsa u ana shu baxli inson bo'ladi” deb javob bergan ekan. Bundan ko'rinadiki to'g'ri kasb-hunar tanlay olish ham bir san'at va bu kelajakdagi bizning baxtli hayotimiz uchun zamin desak mubolag'a bo'lmaydi. Shunday ekan bolani o'zi xohlamagan kasbni egallashga majburlash bu mantiqsizlik deb hisoblayman. Chunki inson erkin bo'lib tug'iladi va erkin o'zi hayotini qurishi kerak deb o'ylayman. Shuning bilan birgalikda ayrim insonlar daromadi yuqori kasbni tanlab, xobbi sifatida o'zlari sevgan mashg'ulot bilan shug'ullanishadi. Nima bo'lgan taqdirda ham inson o'zi sevgan kasb bilan shug'ullanishi kerak.

Yoshlikdan bizning maktablarda bolalarni erkin fikrlashga qanaqadir ma'noda to'siq qo'yiladi ya'ni sen nimani bilasan, hali yoshsan kabi fikrlar. Bu albatta endigina o'sib kelayotgan bola ongiga ta'sir qilmay qolmaydi. Kelajakda jamiyatning bunday bosimi bolada o'ziga nisbatan ishonchsizlikka olib keladi hamda bola o'zining erkin fikriga ega bo'lmasligiga turtki beradi. Bu albatta kelajagi uchun qaror qabul qilish uchun o'smirlar anchayin to'siqlarni keltirib chiqaradi.

Psixologiyada o'smirlar yoshlarning psixologik salomatligi ijtimoiy hamda iqtisodiy, madaniy, ekologiya va shunga o'xshash boshqa ko'plab omillarga bog'liqligi aniqlangan. Psixologiya soha vakillarining tadqiqotlariga asosan o'smirlar tashqi muhitning turli xil ta'sirlariga tezda ta'sir qiladi. Oxirgi yillarda olib borilgan tadqiqotlarga qaraganda o'smirlarda kasb tanlashda eng ko'p uchraydigan muammo bu kasb tanlashdagi xavotir hamda shu xavotir orqasidan keladigan shoshma-shosharlikdir. Buning natijasida aniq bir to'xtamga kelinmay, ko'r-ko'rona o'smir o'zi xohlamagan kasbni tanlab qo'yishi mumkin. To'g'ri albatta xavotirlanish shaxsning shu qilayotgan tanloviga ma'suliyat bilan yondashayotgani belgisi bo'lishi mumkin. Ammo xavotir chegaradan oshib ketganda, odamda vahima tuyg'usi paydo bo'ladi. Natijada muvaffaqiyatsizlikka uchramaslik uchun o'smir tanlamoqchi bo'lgan kasbidan voz kechadi yoki shu kasbda muvaffaqiyatga erishay deb ko'p narsani qiladiki, faqat shu ish bilan bo'lgani uchun unda fiziologik charchoq paydo bo'ladi. Agar shu kasbda mobodo ular qanaqangidir ko'ngilsizlikka uchrasalar, ularda muvaffaqiyatsizlik qo'rquvi paydo bo'ladi, xavotirlanish kuchaya boshlaydi, ma'lum bir faoliyatlarda unga doimiy ravishda to'siq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev. SH.M Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: «O'zbekiston» 2017. -136 b

2. Ананьев Б.Г. К психофизиологии студенческого возраста // Современные психолого-педагогические проблемы высшей школы. 1974. Вып. 2. Л.: ЛГУ. С. 3-15
3. Jalilova. S. X., Xaydarov F.I, Xalilova N.I. Kasb psixologiyasi. –T: 2010. -17-b.